JIZZAX VILOYATI ZARBDOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 28-yanvar | 15-3-49-Q/25 | Zarbdor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi 1-sonli farmoni ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-noyabrdagi “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-427-son qarori va 2023-yil 21-dekabrdagi “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-208-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 1-sonli Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-,6-va 21_1-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 1-sonli hamda viloyat hokimi v.b 2025-yil 20-yanvardagi 40-3-0-Q/25-sonli Farmonlari ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3.Tuman hokimining o‘rinbosarlari, guruh rahbari tuman hokimligining Umumiy bo‘limi boshlig‘i bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoniga asosan Zarbdor tumani hokimi tomonidan qabul qilingan qarorlarni xatlovdan o‘tkazib, zarur hollarda sohaga oid qarorlariga belgilangan tartibda o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko‘rsin.

4.Tegishli tashkilotlar 1 oy muddatda o‘zlari qabul qilgan hujjatlarini ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Karimova zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **TASHPULATOV BEKZOD.TURGUNOVICH**

Zarbdor tuman hokimining
2025-yil 28-yanvardagi
15-3-49-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Zarbdor tumani hokimi tomonidan qabul qilingan qarorlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotgan ayrim qarorlar

RO‘YXATI

1.Tuman hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni ijrosi haqida” 2020-yil 16-martdagi 157-sonli qarori.

2.Tuman hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-maydagi qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi to‘g‘risida”gi PQ-2993-son Qarori ijrosi haqida” 2017-yil 27-maydagi 996-son qarori.

3.Tuman hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-son Qarori ijrosi haqida” 2019-yil 16-martdagi 1746-sonli qarori.

4.Tuman hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son Qarori ijrosi haqida” 2023-yil 14-iyuldagi 154-3-49-Q/23-son qarori.